



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2018 yilning yanvar – noyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
39315,8 mlrd. so'm
Yirik pudrat tashkilotlari
ulushi – **29,4 %**
Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi –
41,5 %
Norasmiy sektor ulushi –
29,1 %



O'zbekistonda qurilish faoliyati investisiya kiritilishining jozibador y'onalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli tarmog'i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 39315,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 11548,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,4 %ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi.

Kichik korhona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari qurilish ishlari hajmining 41,5 %i yoki 16315,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,6 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 29,1 % yoki 11451,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,4 %ni tashkil etdi.



Yirik pudrat tashkilotlari

•hajm - 11548,8mlrd.so'm
•o'sish sur'ati- 103,3 %



Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar


•hajm - 16315,5mlrd.so'm
•o'sish sur'ati- 115,6 %



Norasmiy sektor

•hajm - 11451,5mlrd.so'm
•o'sish sur'ati- 98,4 %

Yanvar-noyabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 77,1 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko`paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 11,5 %ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 11,4 % to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkich darajasi saqlanib qoldi.

Yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 26,6 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 36,2 % (2,2 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 37,2 %ni (2,8 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-noyabrda faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 26,6 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 36,2 %
- Norasmiy sektor - 37,2 %

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 51,2 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 44,5 %
- Norasmiy sektor - 4,3 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

- Yirik pudrat tashkilotlari - 25,9 %
- Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar - 74,1 %

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 51,2 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 44,5 % (2,1 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 4,3 %ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,0 % punktga kamaydi va 25,9 %ni tashkil etdi. Qolgan 74,1 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,0 % punktga ko'paydi.




2018 yil yanvar-noyabrda oylarida iqtisodiyot faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

mlrd.so'm

	Qurilish ishlari, xizmatlar - jami	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		Binolar va inshotlar qurilishi	Fuqarolik qurilishi ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi	39315,8	30287,2	4537,8	4490,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1580,3	1067,0	195,0	318,3
viloyatlar:				
Andijon	2299,5	1865,1	107,7	326,7
Buxoro	2778,5	1959,9	364,8	453,8
Jizzax	1145,7	899,9	174,8	71,0
Qashqadaryo	3023,4	2407,1	213,6	402,7
Navoiy	1666,3	1442,4	121,6	102,3
Namangan	1623,2	1165,0	230,9	227,3
Samarqand	2487,2	2063,1	273,2	150,9
Surxondaryo	2142,1	1471,7	557,9	112,5
Sirdaryo	579,9	415,1	102,1	62,7
Toshkent	1965,5	1470,3	256,1	239,1
Farg'ona	2508,4	1993,4	161,9	353,1
Xorazm	1497,5	1197,4	176,8	123,3
Toshkent sh.	7917,8	4769,3	1601,4	1547,1

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlari tarkibi, %




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 16315,5 mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 41,5 %) tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 15,6 %ga ko`paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan 11548,8 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 29,4 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 %ni tashkil etdi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 29,1 %i yoki 11451,5 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 98,4 %ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo`yicha qurilish ishlarining o`shish sur`atlari




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo`yicha tarkibida Navoiy (hududdagi qurilish hajmining 31,5 %ini tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 marta qurilish ishlari ko`p bajarilgan) va Toshkent (mos ravishda, 27,2 % va o`tgan yilning shu davriga nisbatan 105,5 %ni tashkil etdi) shahri yetakchilik qilmoqda.

Hududlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan, %da



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida kuzatildi – 1,9 %. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri keldi – hududdagi jami qurilish ishlarining 49,7 %i.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan, %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish sur`ati Navoiy viloyatida (120,6 %) kuzatildi.


- "Auminzo-Amantay" konida oltin-ma'danli rudalarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (GMZ-5) (I-II bosqich);
- "Amudaryo-Zarafshon" suv o'tkazgichining 3-bo'ginini qurish, nasos stantsiyalarini rekonstruktsiya qilish;
-

- “Ko’kpatas” va “Daugiztau” konlarida oltinni ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirish.

Toshkent viloyatidagi (108,8 %) yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining oshishiga:

- Bo’stonliq tumanida GES, hamda harbiy shaharcha qurilishi bo`yicha qurilish ishlari;
- Toshkent viloyati hududida yangi avtomobil yo’llari qurilishi, kapital va joriy ta`mirlash.

Hududlar kesimida qurilish ishlari, %da



Toshkent shahrining yuqori o`shish sur`atga – 110,5 % ko`rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirg`ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- “Angren-Pop” temir yo`l liniyalarida to`siqlar o`rnatish;
- “Milliy bog” dam olish maskanini O`zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi bog`iga rekonstruktsiya qilish kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Nashr uchun mas`ul:

J.Saipov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-56